FARG’ONA VILOYATI TARIXI VA MADANIYATI DAVLAT MUZEYI ALOQADORLIGINI O’QUVCHILAR ONGIGA SINGDIRISH.

Nilufarxon Isaqova
O’zbekiston Ekologiya partiyasi Farg’ona shahar kengashi raisi
F.Xo’jayeva
Farg’ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi tabiat bo’limi boshlig’i.
Navbahor Yusupjonova Xolmatjonovna
Farg’ona shahar "Eso Schools Uzbekistan" 30-maktab koordinatori
yusupjonova80@mail.ru

Annotatsiya: *Yurtboshimiz tashabbuslari bilan ijtimoiy va ma’naviy –ma’rifiy sohalarga oid beshta tashabbusi deb atalashi ma’naviy ahamiyat kasb etib qolmasdan mamlakatimiz taraqqiyotida qudratli kuch hisoblangan bo’g’in — o’smir va yoshlarimizga yanada kuchliroq e’tiborni bildiradi.*

Kalit so‘zlar: *ilmiy izlanish, Muzey, pedagogika fani, geologik, paleontologik, ilmiy izlanishlar*

Muzeylar xalq tafakkurini yanada boyitadigan, o’tmishni chuqur o’rganish, ayniqsa, yoshlar qalbida Vatanga, xalqqa bo’lgan muhabbatning yuksalishiga xizmat qiluvchi dargoh hisoblanadi.

Muzeylar madaniy-ma’rifiy muassasa sifatida tarixiy, moddiy va ma’naviy yodgorliklarni to’plash, saqlash, o’rganish va targ’ib qilish bilan umummadaniy ishga o’z hissalarini qo’shadilar. Muzeylar faoliyati insoniyatning tarixiy taraqqiyot jarayonida rivojlanib borishi, qo’lga kiritgan yutuqlari hamda qoldirgan boy madaniy-ma’naviy merosi xususida juda katta bilimlar beradi. Muzeylar faoliyatini o’rganish natijasida kelib chiqadigan estetik badiiy idrok qobiliyati kishilarda olamni, undagi mavjudotlar, voqea-hodisalarni, atrof muhitdagi jarayonlarni turfa shakl-shamoyilda qaytadan aks ettirishga havas uyg’otadi.

Muzey pedagogikasi bu pedagogika fanining tarmog’idir. U muzey auditoriyasini o’rganib, turli yoshdagi tomoshabinlar guruhi va ularning turli ijtimoiy talablarini, ekspozitsiyasining o’ziga xos qabul qilishini tahlil qiladi va shunga qarab ayrim hollarda ekspozitsiyaga o’zgartirish kiritadi. Turli toifadagi tomoshabinlar bilan ishlashda yangi dastur va metodikalar ishlab chiqadi.

Farg’ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi fondidan tabiat tarixi haqidagi geologik, paleontologik, mineral va tabiiy fanlarga oid boshqa ashyo va kollektsiyalar o’rin olgan. Bugungi kunda tabiat fondida 2 mingga yaqin ashyo saqlab kelinmoqda. Tabiat bo’limi ekspozitsiyasidagi noyob toshlar, qotirilgan hayvonlar, noyob landshaftlar diaramalari ham tomoshabinlarni befarq qoldirmaydi. Ayniqsa, tog’, adir, cho’l, g’or diaramalari kishiga vodiy tabiatining o’ziga xos jihatlari, go’zalligi haqida aniq tasavvur paydo qilish imkonini beradi. Tashrif buyurgan o’quvchi yoshlarga Farg’ona vodiysining betakror, o’ziga xos tabiati, tabiiy boylikari, geologik tuzilishi, o’simlik va hayvonot olami haqida ma’lumotlar beriladi. Ekspozitsiya zalining aynan tabiat bo’limi bilan boshlanishi

ham bejiz emas. Chunki, biron bir hududning tabiatini o’rganmay turib, uning ijtimoiy-iqtisodiy mavqei haqida tasavvvurga ega bo’lish qiyin.

Farg’ona viloyatidagi ko’pgina hududlarida o’simliklar, mollyuskalar, suv o’tlarning izlari saqlanib qolgan toshlar uchrab turadi. Ma’lumki, 350 million yil ilgari Markaziy Osiyo hududini dengiz egallagan bo’lib, Farg’ona vodiysi ana shu dengizning Sarmat qo’ltig’ida joylashgan. Yer po’stining harakati natijasida suvlik chekinib, vodiy quruqlikka aylangan. O’sha davrlar geologik nazariyalarga asosan paleozoy davriga to’g’ri keladi.

Bugungi kunda Farg’ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida qadimgi mavjudotlarning tosh qoldiqlari saqlab va aholiga namoyish etib kelinmoqda. Bunday eksponatlar asosan Quvasoy shahrining Mo’yan va O’zbekiston tumanining Sho’rsuv qishloqlaridan topilgan. Bu ashyolar Farg’ona vodiysining geologik tarixini o’rganishda muhim kasb etadi.

Tabiat bo’limi fondidan muzeyimiz xodimlari tabiat bo’limi ekspozitsiya zalidagi eksponatlar sonini yanada ko’paytirish, yangi ma’lumotlar bilan boyitish uchun harakat qilmoqdalar. Bu borada turli ilm dargohlari bilan hamkorlik qilinyapti.

Muzeyimiz maktab o’quvchilari, talabalar, ilmiy tadqiqotchilar uchun sevimli maskanga aylangan. Tashrif buyuruvchilarga qulaylik yaratish, sifatli xizmat ko’rsatish, ilmiy-uslubiy yordam berishga harakat qilmoqdamiz. Fond zahirasi esa yangi topilmalar bilan boyitilib, ilmiy izlanishlar davom etmoqda. Tashrif buyurgan o’quvchi yoshlar maktablarda, boshqa ilm dargohlarida olgan bilimlarini yanada boyitadilar va mustahkamlaydilar. Tabiat bo’limidagi eksponatlar orqali ular o’zlariga kerak bo’lgan ma’lumotlarga ega bo’lishadi.

Yurtimizdagi tarixiy va madaniy yodgorliklarni, tabiiy boyliklarni muhofaza qilish, o’rganish va ulardan oqilona foydalanish har bir fuqaroning konstitutsiyaviy burchidir. Biz, muzey xodimlari ham tashrif buyurgan yoshlar ongiga ana shu burchga og’ishmay amal qilishni singdirishga harakat qilmoqdamiz.

FOYDANANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Innovatsion ta’lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To’raev A.B. – T.: ―Sano standart‖ nashriyoti, 2015. – 81-b.

2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari /O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o’qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulьteti tinglovchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o’qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004.

3. Yo’ldoshev J.G’., Usmonov S. Ilg’or pedagogik texnologiyalar.

4.Ijtimoiy axborot ta’lim portali: www. Ziyonet. uz.

5. http://www.school.edu.ru - Umumta’lim portali (rus tilida),

6. http://www.alledu.ru - ―Internetdan ta’lim‖ portali (rus tilida)